# QORAQALPOG'ISTON RESPUBLIKASINING TASHQI SAVDO AYLANMASI (2021- yil yanvar)

Mamlakatning tashqi iqtisodiy faoliyati, xususan tashqi savdo sohasida amalga oshirilayotgan islohotlarning pirovard natijasi aholining turmush darajasiga bevosita o'z ta'sirini o'tkazadi.

2021- yil yanvar oyi yakuni bilan Qoraqalpog'iston Respublikasining tashqi savdo aylanmasi (matnda TSA) 53,9 mln. AQSh dollarini tashkil etib, 2020- yilning mos davriga nisbatan 9,7 mln. AQSh dollariga yoki 22,1 % ga ko'paydi.

**TASHQI SAVDO AYLANMASI VA BALANSI (yanvar, mln. AQSh dollari)**




*Ma'lumot uchun: O`zbekiston Respublikasi tovarlar tashqi savdosi statistika ko'rsatkichlarini shakllantirishda, Tashqi iqtisodiy faoliyat Tovar nomenklaturasi (keying o'rinlarda TIF TN) bilan birgalikda, Birlashgan Millatlar Tashkilotining Xalqaro standartlashgan savdo tasniflagichi (keyingi o'rinlarda – XSST) ishlatiladi. Bu o'z navbatida tahliliy maqsadlarda eksport va import qilinadigan tovarlarni 10 ta katta qismga guruhlash uchun imkon beradi. Tovarlarni XSST bo'yicha kodlashtirish, TIF TN va XSST o'rtasida o'tish kalitlari yordamida amalga oshiriladi.*

TSAda eksport hajmi 34,1 mln. AQSh dollariga (10,3 % ga ko‘paydi) va import hajmi 19,8 mln. AQSh dollariga (49,6 % ga ko‘paydi) yetdi. Hisobot davrida 14,3 mln. AQSh dollari qiymatida ijobiy tashqi savdo balansi qayd etildi.

**QORAQALPO-G‘ISTON RESPUBLIKASI BILAN TASHQI SAVDO AYLANMASI ENG YUQORI ULUSHGA EGA BO‘LGAN DAVLATLAR (2021- yil yanvar, mln. AQSh dollari)**

| Top-10 davlatlar | TSA | Eksport | Import | Ulushi, % da |
|---|---|---|---|---|
| Xitoy Xalq Respublikasi | 12,9 | 11,0 | 1,9 | 24,0 |
| Rossiya Federatsiyasi | 9,4 | 6,8 | 2,6 | 17,4 |
| Turkiya | 7,8 | 6,7 | 1,1 | 14,4 |
| Chexiya Respublikasi | 5,3 | - | 5,3 | 9,9 |
| Qozog‘iston | 3,8 | 2,7 | 1,1 | 7,0 |
| Latviya | 2,3 | 2,3 | - | 4,4 |
| Vyetnam | 2,2 | - | 2,2 | 4,1 |
| Koreya Respublikasi | 1,7 | 0,1 | 1,6 | 3,2 |
| Ukraina | 1,5 | 1,5 | - | 2,8 |
| Germaniya | 1,4 | - | 1,4 | 2,6 |

So‘nggi yillarda hukumatimiz tomonidan sanoat tuzilmasini diversifikatsiya qilishda, eksportni qo‘llab-quvvatlash, import o‘rnini bosuvchi tovar va mahsulotlarni ishlab chiqarishni yanada oshirilishi natijasida, eksport tarkibida sezilarli o‘zgarishga erishildi.

Qoraqalpog‘iston Respublikasi, jahonning 40 ta mamlakati bilan savdo aloqalarini amalga oshirib kelmoqda. TSAning nisbatan salmoqli hissasi Xitoy Xalq Respublikasida (24,0 %), Rossiya Federatsiyasida (17,4 %), Turkiyada (14,4 %), Chexiya Respublikasida (9,9 %), Qozog‘istonda (7,0 %) va Latviyada (4,4 %) qayd etilgan.

Shuningdek, qo‘shni davlatlar bilan o‘zaro aloqalarni mustahkamlash, mamlakatlarni ijtimoiy-iqtisodiy, savdo-sanoat hamda madaniy sohalardagi aloqalarini rivojlantirish borasida katta ishlar amalga oshirilayotganini ko‘rish mumkin.

Xususan, qo‘shni davlatlar bilan TSAda so‘nggi yillarda katta o‘zgarishlar kuzatilyapti. Misol uchun, so‘nggi uch yilda Qirg‘iz Respublikasi, Afg‘oniston va Tojikiston bilan tashqi savdo aylanmasi oshgani kuzatilmoqda.

Boshqa davlatlar (qo‘shni davlatlardan tashqari) bilan esa, TSAda eng yuqori ulush Xitoy, Rossiya, Turkiya, Chexiya Respublikasi va Latviya davlatlari hissasiga to‘g‘ri kelgan.

Tashqi iqtisodiy faoliyat bo‘yicha 20 ta yirik hamkor-davlatlar orasidan 12 ta davlatda ijobiy tashqi savdo balansi kuzatilgan, xususan, Xitoy Xalq Respublikasi (9,1 mln. AQSh dollari), Turkiya (5,6 mln. AQSh dollari), Rossiya Federatsiyasi (4,2 mln. AQSh dollari), Latviya (2,3 mln. AQSh dollari), Qozog‘iston (1,6 mln. AQSh dollari), Ukraina (1,5 mln. AQSh dollari), Frantsiya (0,5 mln. AQSh dollari), Tojikiston (0,4 mln. AQSh dollari), Iroq (0,4 mln. AQSh dollari), Estoniya (0,3 mln. AQSh dollari), Afg‘oniston (0,2 mln. AQSh dollari) va Qirg‘iz Respublikasi (0,1 mln. AQSh dollari) shular jumlasidandir. Qolgan 8 ta davlatlar bilan passiv tashqi savdo balansi saqlanib qolmoqda.

**QORAQALPOG‘ISTON RESPUBLIKASINING YIRIK HAMKOR DAVLATLAR BILAN TASHQI SAVDO AYLANMASI DINAMIKASI (yanvar, mln. AQSh dollari)**

| Davlatlar | 2019- yil | 2020- yil | 2021- yil |
|---|---|---|---|
| **Xitoy Xalq Respublikasi** | **17,3** | **12,6** | **12,9** |
| Eksport | 6,1 | 8,6 | 11,0 |
| Import | 11,2 | 4,0 | 1,9 |
| Saldo | -5,1 | 4,6 | 9,1 |
| **Rossiya Federatsiyasi** | **15,3** | **11,9** | **9,4** |
| Eksport | 12,9 | 9,1 | 6,8 |
| Import | 2,4 | 2,8 | 2,6 |
| Saldo | 10,5 | 6,3 | 4,2 |
| **Turkiya** | **8,5** | **5,2** | **7,8** |
| Eksport | 6,5 | 5,2 | 6,7 |
| Import | 2,0 | - | 1,1 |
| Saldo | 4,5 | 5,2 | 5,6 |
| **Chexiya Respublikasi** | **-** | **-** | **5,3** |
| Eksport | - | - | - |
| Import | - | - | 5,3 |
| Saldo | - | - | -5,3 |
| **Qozog‘iston** | **5,9** | **5,8** | **3,8** |
| Eksport | 4,6 | 3,5 | 2,7 |
| Import | 1,3 | 2,3 | 1,1 |
| Saldo | 3,3 | 1,2 | 1,6 |
| **Latviya** | **1,6** | **3,7** | **2,3** |
| Eksport | 1,6 | 3,5 | 2,3 |
| Import | - | 0,2 | - |
| Saldo | 1,6 | 3,3 | 2,3 |
| **Vyetnam** | **0,4** | **0,6** | **2,2** |
| Eksport | - | - | - |
| Import | 0,4 | 0,6 | 2,2 |
| Saldo | -0,4 | -0,6 | -2,2 |

**QORAQALPOG‘ISTON RESPUBLIKASINING YIRIK HAMKOR DAVLATLAR BILAN TASHQI SAVDO AYLANMASI DINAMIKASI (yanvar, mln. AQSh dollari)**

| Davlatlar | 2019- yil | 2020- yil | 2021- yil |
|---|---|---|---|
| **Koreya Respublikasi** | **3,4** | **2,1** | **1,7** |
| Eksport | 0,8 | 0,1 | 0,1 |
| Import | 2,6 | 2,0 | 1,6 |
| Saldo | -1,8 | -1,9 | -1,5 |
| **Ukraina** | **0,4** | **-** | **1,5** |
| Eksport | 0,4 | - | 1,5 |
| Import | - | - | - |
| Saldo | 0,4 | - | 1,5 |
| **Germaniya** | **0,9** | **-** | **1,4** |
| Eksport | - | - | - |
| Import | 0,9 | - | 1,4 |
| Saldo | -0,9 | - | -1,4 |
| **Qirg‘iz Respublikasi** | **0,7** | **0,1** | **0,9** |
| Eksport | 0,6 | 0,1 | 0,5 |
| Import | 0,1 | - | 0,4 |
| Saldo | 0,5 | 0,1 | 0,1 |
| **Frantsiya** | **-** | **-** | **0,7** |
| Eksport | - | - | 0,6 |
| Import | - | - | 0,1 |
| Saldo | - | - | 0,5 |
| **Birlashgan Arab Amirliklari** | **0,5** | **-** | **0,5** |
| Eksport | - | - | - |
| Import | 0,5 | - | 0,5 |
| Saldo | -0,5 | - | -0,5 |
| **Tojikiston** | **0,3** | **0,1** | **0,4** |
| Eksport | 0,3 | 0,1 | 0,4 |
| Import | - | - | - |
| Saldo | 0,3 | 0,1 | 0,4 |

**QORAQALPOG‘ISTON RESPUBLIKASINING YIRIK HAMKOR DAVLATLAR BILAN TASHQI SAVDO AYLANMASI DINAMIKASI (yanvar, mln. AQSh dollari)**

| Davlatlar | 2019- yil | 2020- yil | 2021- yil |
|---|---|---|---|
| **Iroq** | **0,2** | **0,3** | **0,4** |
| Eksport | 0,2 | 0,3 | 0,4 |
| Import | - | - | - |
| Saldo | 0,2 | 0,3 | 0,4 |
| **Estoniya** | **0,5** | **0,1** | **0,3** |
| Eksport | 0,2 | 0,1 | 0,3 |
| Import | 0,3 | - | - |
| Saldo | -0,1 | 0,1 | 0,3 |
| **Polsha** | **0,1** | **0,1** | **0,2** |
| Eksport | - | - | - |
| Import | 0,1 | 0,1 | 0,2 |
| Saldo | -0,1 | -0,1 | -0,2 |
| **Afg‘oniston** | **-** | **-** | **0,2** |
| Eksport | - | - | 0,2 |
| Import | - | - | - |
| Saldo | - | - | 0,2 |
| **Belgiya** | **-** | **0,1** | **0,2** |
| Eksport | - | - | - |
| Import | - | 0,1 | 0,2 |
| Saldo | - | -0,1 | -0,2 |
| **Avstriya** | **-** | **-** | **0,2** |
| Eksport | - | - | - |
| Import | - | - | 0,2 |
| Saldo | - | - | -0,2 |

**QORAQALPOG‘ISTON RESPUBLIKASI - NING TASHQI SAVDO AYLAN-MASIDA MDH MAMLAKATLARI VA BOSHQA XORIJIY DAV-LATLARNING HAJMLARI DINAMIKASI (yanvar, mln. AQSh dollari, ulushi, % da)**

Respublikamizda tashqi savdoni qo‘llab-quvvatlash hamda MDH davlatlari bilan ushbu sohadagi hamkorlikni yanada mustahkamlash bo‘yicha olib borilayotgan chora-tadbirlar natijasida, 2021- yil yanvar oyida, tashqi savdo aylanmasida MDH davlatlarining ulushi 30,2 % ni tashkil etib, tashqi savdo aylanmasi 16,3 mln. AQSh dollarini tashkil etdi.







Boshqa xorijiy davlatlarning TSAsi 2021- yil yanvar oyida 2020- yilning shu davriga nisbatan ko‘paydi (43,6 % ga) va jami TSAdagi ulushi 69,8 % ni tashkil etdi.

# QORAQALPOG‘ISTON RESPUBLIKASINING EKSPORTI (2021- yil yanvar)

Joriy yilning yanvar oyida mamlakatning eksportyorlari soni 73 tani tashkil etib, ular tomonidan 33,9 mln. AQSh dollari (qimmatbaho metallar eksportidan tashqari) qiymatidagi (2020-yilning mos davriga nisbatan 9,7 % ga ko‘paydi) tovar va xizmatlar eksport qilinishi ta’minlandi.

Eksport tarkibida tovarlar ulushi 99,7 % ni tashkil etib, ular asosan kimyoviy vositalar va boshqa toifalarga kiritilmagan shunga o‘xshash mahsulotlar (72,6 %), nooziq-ovqat homashyo, yoqilg‘idan tashqari (12,5 %), asosan material turiga qarab klassifikatsiyalangan sanoat tovarlari (8,0 %) va oziq-ovqat mahsulotlari va tirik hayvonlar (4,8 %) hissasiga to‘g‘ri kelmoqda.

**EKSPORT TARKIBI (2021- yil yanvar, ulushi, % da)**




- Oziq-ovqat mahsulotlari va tirik hayvonlar
- Ichimliklar va tamaki
- Nooziq-ovqat homashyo, yoqilg'idan tashqari
- Mineral yoqilg'I, yog'lash moylari va shunga o‘xshash materiallar
- Hayvonlar va o'simliklar moylari (yog'lari), yog'lar va mumlar
- Kimyoviy vositalar va boshqa toifalarga kiritilmagan shunga o'xshash mahsulotlar
- Asosan material turiga qarab klassifikatsiyalangan sanoat tovarlari
- Mashinalar va transport asbob-uskunalari
- Turli xil tayyor buyumlar
- Xizmatlar

**MDH VA BOSHQA XORIJIY DAVLATLARGA EKSPORT TARKIBI (2021- yil yanvar)**

| XSST tarkibi | Ming AQSh dollari | | | Umumiy hajmga nisbatan, % da | | |
|---|---|---|---|---|---|---|
| | Jami | MDH davlat-lari | Boshqa davlatlar | Jami | MDH davlat-lari | Boshqa davlatlar |
| **Jami eksport** | **34 092,2** | **11 931,4** | **22 160,8** | **100** | **100** | **100** |
| shu jumladan: | | | | | | |
| Oziq-ovqat mahsulotlari va tirik hayvonlar | 1 646,3 | 617,5 | 1 028,8 | 4,8 | 5,2 | 4,6 |
| Ichimliklar va tamaki | 5,0 | 5,0 | - | - | - | - |
| Nooziq-ovqat homashyo, yoqilg‘idan tashqari | 4 245,7 | 45,7 | 4 200,0 | 12,5 | 0,4 | 19,0 |
| Mineral yoqilg‘I, yog‘lash moylari va shunga o‘xshash materiallar | 438,0 | 112,3 | 325,7 | 1,3 | 0,9 | 1,5 |
| Hayvonlar va o‘simliklar moylari (yog‘lari), yog‘lar va mumlar | - | - | - | - | - | - |
| Kimyoviy vositalar va boshqa toifalarga kiritilmagan shunga o‘xshash mahsulotlar | 24 762,6 | 10 258,8 | 14 503,8 | 72,6 | 86,0 | 65,4 |
| Asosan material turiga qarab klassifikatsiyalan-gan sanoat tovarlari | 2 720,0 | 829,6 | 1 890,4 | 8,0 | 7,0 | 8,5 |
| Mashinalar va transport asbob-uskunalari | - | - | - | - | - | - |
| Turli xil tayyor buyumlar | 167,1 | 13,6 | 153,5 | 0,5 | 0,1 | 0,7 |
| Xizmatlar | 107,5 | 48,9 | 58,6 | 0,3 | 0,4 | 0,3 |

MDH mamlakatlari va boshqa mamlakatlarga eksportning yo‘nalishi bo‘yicha farqlanishlar mavjudligi kuzatilmoqda. Xususan, MDH mamlakatlariga eksportning asosiy qismi kimyoviy vositalar va boshqa toifalarga kiritilmagan shunga o'xshash mahsulotlar hissasiga to‘g‘ri kelmoqda, keyingi o‘rinlarda eksport hajmi bo‘yicha asosan material turiga qarab klassifikatsiyalangan sanoat tovarlari va oziq-ovqat mahsulotlari va tirik hayvonlarga to‘g‘ri kelmoqda.

| XSST tarkibi | 2020- yilning yanvariga nisbatan, % da | | |
|---|---|---|---|
| | Jami | MDH davlatlari | Boshqa davlatlar |
| **Jami** | **110,3** | **93,4** | **122,1** |
| shu jumladan: | | | |
| Oziq-ovqat mahsulotlari va tirik hayvonlar | 191,0 | 133,0 | 2,6 b. |
| Ichimliklar va tamaki | - | - | - |
| Nooziq-ovqat homashyo, yoqilg‘idan tashqari | 146,0 | 2,8 b. | 145,3 |
| Mineral yoqilg‘I, yog‘lash moylari va shunga o‘xshash materiallar | 3,9 b. | - | 2,9 b. |
| Hayvonlar va o'simliklar moylari (yog‘lari), yog‘lar va mumlar | - | - | - |
| Kimyoviy vositalar va boshqa toifalarga kiritilmagan shunga o‘xshash mahsulotlar | 105,5 | 93,9 | 115,7 |
| Asosan material turiga qarab klassifikatsiyalangan sanoat tovarlari | 81,6 | 71,5 | 87,0 |
| Mashinalar va transport asbob-uskunalari | - | - | - |
| Turli xil tayyor buyumlar | 696,2 b. | 56,7 b. | - |
| Xizmatlar | 44,5 | 23,5 | 174,7 |

**MDH VA BOSHQA XORIJIY DAVLATLARGA TOVAR VA XIZMATLAR EKSPORTINING O‘ZGARISH SUR’ATLARI (2021- yil yanvar)**

**EKSPORT TARKIBI DINAMIKASI (yanvar, ulushi, % da)**

2021- yil yanvar oyida eksport qilingan tovarlar va xizmatlar tarkibining tahlili shuni ko‘rsatmoqdaki, tovarlar va xizmatlar tarkibida sezilarli o‘zgarishlar qayd etilmadi, biroq shuni ta’kidlash joizki, 2020- yilning yanvariga nisbatan, asosan material turiga qarab klassifikatsiyalangan sanoat tovarlari hamda xizmatlardan tashqari barcha tovar guruhlarida o‘sish kuzatildi.

| XSST tarkibi | 2019- yil | 2020- yil | 2021- yil |
|---|---|---|---|
| **Jami** | **100** | **100** | **100** |
| shu jumladan: | | | |
| Oziq-ovqat mahsulotlari va tirik hayvonlar | 1,1 | 2,8 | 4,8 |
| Ichimliklar va tamaki | - | - | - |
| Nooziq-ovqat homashyo, yoqilg‘idan tashqari | 3,7 | 9,4 | 12,5 |
| Mineral yoqilg‘I, yog‘lash moylari va shunga o‘xshash materiallar | 2,4 | 0,4 | 1,3 |
| Hayvonlar va o‘simliklar moylari (yog‘lari), yog‘lar va mumlar | - | - | - |
| Kimyoviy vositalar va boshqa toifalarga kiritilmagan shunga o‘xshash mahsulotlar | 85,8 | 75,8 | 72,6 |
| Asosan material turiga qarab klassifikatsiyalangan sanoat tovarlari | 6,6 | 10,8 | 8,0 |
| Mashinalar va transport asbob-uskunalari | - | - | - |
| Turli xil tayyor buyumlar | - | - | 0,5 |
| Xizmatlar | 0,4 | 0,8 | 0,3 |

## XSST BO‘LIMI BO‘YICHA AYRIM MAHSULOTLAR EKSPORTI TARKIBI (2021- yil yanvar)

| XSST bo‘limi nomi | Ming AQSh dollari | 2020-yilning mos davriga nisbatan, % da |
|---|---|---|
| **Oziq-ovqat mahsulotlari va tirik hayvonlar** | | |
| Sabzavotlar va mevalar | 1 382,8 | 165,9 |
| Donli ekinlar va ulardan tayyorlangan mahsulotlar | 258,2 | 9,1 b. |
| Kofe, choy, kakao, ziravorlar va ulardan tayyorlangan mahsulotlar | 0,1 | - |
| Shakar, shakardan tayyorlangan mahsulotlar va asal | 3,0 | - |
| Har hil oziq-ovqat mahsulotlari va preparatlar | 1,0 | - |
| Sut mahsulotlari va qush tuxumlari | 1,2 | - |
| **Ichimliklar va tamaki** | | |
| Ichimliklar | 5,0 | - |
| **Nooziq-ovqat xomashyo, yoqilg‘idan tashqari** | | |
| Hayvonlar va o‘simliklardan kelib chiqqan xomashyo materiallari | 3 947,0 | 3,0 b. |
| To‘qimachilik tolalari va ularning chiqindilari | 266,4 | 17,5 |
| Moy olinadigan urug‘lar va mevalar | 4,6 | 10,7 |
| O‘g‘itlar uchun xomashyo va mineral xomashyo (ko‘mir, neft va qimmatbaho toshlardan tashqari) | 27,8 | 173,1 |
| **Mineral yoqilg‘i, yog‘lash moylari va shunga o‘xshash materiallar** | | |
| Neft va neft mahsulotlari va shunga o‘xshash materiallar | 438,0 | 3,9 b. |
| **Hayvonlar va o‘simliklar moylari (yog‘lari), yog‘lar va mumlar** | | |
| O‘simlik moylari va yog‘lari (xom, tozalangan yoki fraksiyalangan) | - | - |
| **Kimyoviy vositalar va boshqa toifalarga kiritilmagan shunga o‘xshash mahsulotlar** | | |
| Birlamchi shaklda bo‘lmagan plastmassalar | - | - |

XSST BO‘LIMI BO‘YICHA AYRIM MAHSULOTLAR EKSPORTI TARKIBI (2021- yil yanvar)

| | | |
|---|---|---|
| Birlamchi shakldagi plastmassalar | 24762,6 | 105,5 |
| Noorganik kimyo moddalari | - | - |
| Efir moylari, rezinoidlar va attorlik moddalari; xojatxona preparatlari, polirovkalash va yuvish vositalari | - | - |
| **Asosan material turiga qarab klassifikatsiyalangan sanoat tovarlari** | | |
| To‘qimachilik yigirilgan ipi, matolar, tayyor buyumlar va shunga o‘xshash mahsulotlar | 2 715,2 | 81,5 |
| Metallardan tayyorlangan buyumlar | - | - |
| Ruda bo‘lmagan qazilmalardan tayyorlangan mahsulotlar | 4,0 | - |
| Probka va daraxtdan tayyorlangan buyumlar (mebeldan tashqari) | 0,8 | 8,8 b. |
| Teri, teridan tayyorlangan buyumlar, mo‘yna | - | - |
| **Mashinalar va transport asbob-uskunalari** | | |
| Avtomobillar | - | - |
| Elektr mashinalari, apparatlar, asboblar va ularning elektr qismlari | - | - |
| Sanoat uchun maxsus bo‘lmagan mashinalar va ularning detallari | - | - |
| Energiya generatori mashinalari va asbob-uskunalar | - | - |
| Aniq sohalar uchun maxsus mo‘ljallangan mashinalar | - | - |
| **Turli hil tayyor buyumlar** | | |
| Mahsus, ilmiy va nazorat asboblari va apparatlari | 153,5 | - |
| Har xil tayyor buyumlar | 13,6 | 56,7 b. |
| Kiyim-kechaklar va kiyim-kechak anjomlari | - | - |
| **Xizmatlar** | | |
| Moliyaviy xizmatlar | 47,0 | 2,1 b. |
| Transport xizmatlari | 56,3 | 45,4 |
| Safarlar (turizm) | 4,2 | 4,4 |
| Boshqa ish yuzasidagi xizmatlar | - | - |
| Qurilish xizmatlari | - | - |

**MDH VA BOSHQA DAVLATLARGA TOVAR VA XIZMATLAR EKSPORTI HAJMLARI DINAMIKASI (yanvar, mln. AQSh dollari, ulushi, % da)**

So‘nggi uch yilda MDH mamlakatlariga eksport hajmi kamaydi va ularning jami eksportdagi ulushi 2020- yil yanvardagi 41,3 % dan 2021- yil yanvarida 35,0 % ni tashkil qildi. Mos ravishda boshqa mamlakatlarning jami eksportdagi ulushi 65,0 % ni tashkil etdi.







2021- yilning yanvar oyi yakunida tovar va xizmatlar eksporti bo‘yicha asosiy hamkor davlatlar tarkibida Xitoy Xalq Respublikasi (32,4 %), Rossiya Federatsiyasi (19,8 %), Turkiya (19,6 %), Qozog‘iston (8,0 %), Latviya (6,9 %), Ukraina (4,5 %) va Frantsiya (1,8 %) davlatlari saqlanib qolmoqda hamda ularning jami eksportdagi ulushi 93,0 foizni tashkil etmoqda.

**QORAQALPOG‘ISTON RESPUBLIKASI EKSPORTIDA ASOSIY HAMKOR DAVLATLARNING ULUSHI (yanvar, ulushi, % da)**

Tovarlar va xizmatlar eksporti bo‘yicha yettita asosiy hamkor davlatlardan yetakchi bo‘lgan Rossiya Federatsiyasining bir pog‘onaga tushishi hisobiga, Xitoy Xalq Respublikasi eksportdagi ulushi bo‘yicha peshqadamlikni oldi.

Hamkor mamlakatlarning tovarlar va xizmatlar eksporti bo‘yicha geografiyasi 2020- yilning mos davriga nisbatan 26 davlatdan 28 davlatga ko‘paydi.




**QORAQALPOG‘ISTON RESPUBLIKASINING ASOSIY HAMKOR DAVLATLARGA AMALGA OSHIRGAN EKSPORTI HAJMI VA O‘ZGARISH SUR’ATLARI (2021- yil yanvar, mln. AQSh. dollari)**

| Asosiy hamkor davlatlar | Eksport | O‘zgarish sur’atlari, % da |
|---|---|---|
| Xitoy Xalq Respublikasi | 11,0 | 127,7 |
| Rossiya Federatsiyasi | 6,8 | 74,3 |
| Turkiya | 6,7 | 129,5 |
| Qozog‘iston | 2,7 | 78,6 |
| Latviya | 2,3 | 68,2 |
| Ukraina | 1,5 | 528,3 b. |
| Frantsiya | 0,6 | - |

## QORAQALPOG‘ISTON RESPUBLIKASINING ASOSIY HAMKOR DAVLATLARGA AMALGA OSHIRGAN EKSPORTI HAJMI VA O‘ZGARISH SUR’ATLARI (yanvar)

| Davlat nomi | Ming AQSH dollari | | O‘zgarish sur’atlari, % da | | O‘rni | |
|---|---|---|---|---|---|---|
| | 2020- y. | 2021- y. | 2020- y. | 2021- y. | 2020- y. | 2021- y. |
| Xitoy Xalq Respublikasi | 8 647,6 | 11 040,6 | 141,3 | 127,7 | 2 | 1 |
| Rossiya Federatsiyasi | 9 092,6 | 6 751,4 | 70,8 | 74,3 | 1 | 2 |
| Turkiya | 5 170,5 | 6 697,6 | 79,6 | 129,5 | 3 | 3 |
| Qozog‘iston | 3 465,8 | 2 722,6 | 75,6 | 78,6 | 4 | 4 |
| Latviya | 3 439,8 | 2 345,9 | 2,1 b. | 68,2 | 5 | 5 |
| Ukraina | 2,9 | 1 523,8 | 0,8 | 528,3 b. | 17 | 6 |
| Frantsiya | - | 613,7 | - | - | - | 7 |
| Qirg‘iz Respublikasi | 76,1 | 473,8 | 11,7 | 6,2 b. | 10 | 8 |
| Tojikiston | 53,3 | 386,8 | 17,4 | 7,3 b. | 12 | 9 |
| Iroq | 305,0 | 381,9 | 2,0 b. | 125,2 | 6 | 10 |
| Estoniya | 111,9 | 325,8 | 60,7 | 2,9 b. | 8 | 11 |
| Afg‘oniston | 33,6 | 233,9 | - | 7,0 b. | 14 | 12 |
| Gruziya | - | 150,2 | - | - | - | 13 |
| Koreya Respublikasi | 59,4 | 100,7 | 7,1 | 169,4 | 11 | 14 |
| Italiya | 0,0 | 65,6 | - | 6 322,2 b. | 24 | 15 |
| Hindiston | 0,0 | 47,6 | - | 1 585,3 b. | 21 | 16 |
| Portugaliya | - | 42,3 | - | - | - | 17 |
| Belarus | 0,0 | 37,3 | - | 3 480,9 b. | 23 | 18 |
| Myanma | - | 34,8 | - | - | - | 19 |
| Ozarbayjon | - | 33,3 | - | - | - | 20 |

Ushbu mamlakatlarga eksport qilinayotgan tovarlar tarkibiga asosan kimyoviy vositalar va boshqa toifalarga kiritilmagan shunga o‘xshash mahsulotlar, nooziq-ovqat xomashyo, yoqilg‘idan tashqari hamda material turiga qarab klassifikatsiyalangan sanoat tovarlari kiradi.

## QORAQALPOG‘ISTON RESPUBLIKASINING AYRIM DAVLATLAR BILAN EKSPORT TARKIBI (yanvar, ming AQSh. dollari)

| XSST tarkibi | XXR | | Rossiya Federatsiyasi | | Turkiya | | Qozog‘iston | |
|---|---|---|---|---|---|---|---|---|
| | 2020- y. | 2021- y. | 2020- y. | 2021- y. | 2020- y. | 2021- y. | 2020- y. | 2021- y. |
| **Jami eksport** | **8 647,6** | **11 040,6** | **9 092,6** | **6 751,4** | **5 170,5** | **6 697,6** | **3 465,8** | **2 722,6** |
| shu jumladan: | | | | | | | | |
| Oziq-ovqat mahsulotlari va tirik hayvonlar | 10,7 | 112,8 | 16,3 | 73,5 | - | 79,2 | 448,0 | 510,7 |
| Ichimliklar va tamaki | - | - | - | - | - | - | - | 5,0 |
| Nooziq-ovqat xomashyo, yoqilg‘idan tashqari | 1 322,4 | 3 301,9 | 13,2 | 23,2 | 35,4 | 100,8 | 0,4 | 22,5 |
| Mineral yoqilg‘i, yog‘lash moylari va shunga o‘xshash materiallar | - | - | - | - | - | - | - | - |
| Hayvonlar va o‘simliklar moylari (yog‘lari), yog‘lar va mumlar | - | - | - | - | - | - | - | - |
| Kimyoviy vositalar va boshqa toifalarga kiritilmagan shunga o‘xshash mahsulotlar | 6 203,3 | 5 826,3 | 7 789,2 | 5 803,1 | 4 376,3 | 6 314,9 | 3 003,7 | 2 146,5 |
| Asosan material turiga qarab klassifikatsiya-langan sanoat tovarlari | 1 111,1 | 1 645,7 | 1 160,5 | 824,8 | 758,7 | 202,4 | 0,1 | 4,8 |
| Mashinalar va transport asbob-uskunalari | - | - | - | - | - | - | - | - |
| Turli xil tayyor buyumlar | - | 153,5 | - | - | - | - | 0,2 | 13,6 |
| Xizmatlar | 0,1 | 0,4 | 113,4 | 26,8 | 0,1 | 0,3 | 13,4 | 19,5 |

XIZMATLAR EKSPORTI TARKIBI (2021- yil yanvar, ulushi, % da)




Xizmatlar eksporti hajmi 0,1 mln. AQSh dollarini yoki jami eksport hajmining 0,3 % ini tashkil etib, 2020- yilning mos davriga nisbatan 55,5 % ga kamayganligi kuzatildi. Xizmatlar eksporti tarkibining asosiy ulushi transport (52,4 %) xizmatlari hissasiga to‘g‘ri kelgan. Shu bilan birga safarlar (turizm) (3,9 %) va moliya xizmatlari (43,7 %) ni tashkil etgan.

**MEVA-SABZAVOT MAHSULOT-LARI EKSPORTI**

Oziq-ovqat mahsulotlarining asosiy qismi bo'lgan 0,6 mln. dollar qiymatli 2,7 ming tonnadan ziyod meva-sabzavot eksport qilingan. Bunda 2020- yilning mos davriga nisbatan 0,2 mln. AQSh dollarida ko'payish kuzatilib, 41,8 % ga ko'paydi. Meva-sabzavot mahsulotlarining eksport tarkibiga qaralsa, 0,5 mln. AQSh dollariga teng 2,6 ming tonna sabzavot, shuningdek, 0,1 mln. AQSh dollari qiymatidagi 0,1 ming tonna meva va rezavorlar eksport qilindi.

Hukumat tomonidan qishloq xo'jaligi va bog'dorchilikni rivojlantirishga katta e'tibor qaratilayotgani bois eksport qilinayotgan meva va sabzavotlarning ulushi 1,8 % ni tashkil etdi.

**MEVA-SABZAVOT MAHSULOT-LARI EKSPORTI (2021- yil yanvar)**




Meva-sabzavot mahsulotlarining asosiy eksport bozorlari Qozog'iston (77,5 %), Rossiya Federatsiyasi (11,9 %) va Italiya (10,6 %) davlatlari hissasiga to'g'ri kelgan.

**MEVA-SABZAVOT MAHSULOTLARI EKSPORTI GEOGRAFIYASI (yanvar)**

| Davlat nomi | 2020- yil | | | 2021- yil | | |
|---|---|---|---|---|---|---|
| | Tonna | Ming AQSh doll. | Ulushi* % da | Tonna | Ming AQSh doll. | Ulushi* % da |
| Qozog‘iston | 2 669,8 | 420,1 | 96,3 | 2 672,7 | 479,7 | 77,5 |
| Rossiya | 65,6 | 16,3 | 3,7 | 77,7 | 73,5 | 11,9 |
| Italiya | - | - | - | 17,9 | 65,6 | 10,6 |
| Xitoy | - | - | - | - | - | - |

**-qiymat ifodasida*

**MEVA VA SABZAVOT MAHSULOTLARINING TARKIBI (yanvar, ulushi, % da)**

**2020- yil**




**2021- yil**



**TO‘QIMACHILIK MAHSULOTLARI EKSPORTI**

To‘qimachilik mahsulotlari eksporti hajmining oshishi bevosita paxta xomashyosi o‘rniga tayyor mahsulot ishlab chiqarish va qo‘shimcha qiymat yaratish maqsadida amalga oshirilgan islohotlarning natijasi ekanini ko‘rish mumkin. Jumladan, joriy yilda 2,8 mln. AQSh dollarlik to‘qimachilik mahsulotlari eksporti amalga oshirilib, umumiy eksportning 8,1 % ini tashkil etdi va o‘tgan yilga nisbatan 17,4 % ga kamaydi.

Eksport qilingan to‘qimachilik mahsulotlari tarkibida paxtadan yigirilgan ip (98,7 %) hamda ipak va ipak mahsulotlari (1,3 %) asosiy ulushni egallagan. Yil boshidan 5 turdagi to‘qimachilik mahsulotlari dunyoning 7 ta davlatiga eksport qilindi.

**TO‘QIMACHILIK MAHSULOTLARI EKSPORTI DINAMIKASI (yanvar, ming AQSh dollari)**

| Tovar nomi | 2020- yil | 2021- yil |
|---|---|---|
| Paxtadan yigirilgan ip | 3 332,5 | 2 715,2 |
| Ipak va ipak mahsulotlari | - | 36,6 |
| Paxtadan gazlamalar | - | - |
| Boshqa to‘qimachilik mahsulotlari | - | - |
| Paxta mahsulotlari | - | - |
| Tayyor trikotaj kiyimlari | - | - |

Respublikaning to‘qimachilik sanoatini diversifikatsiya qilish va tayyor mahsulotlar eksportini rag‘batlantirish borasidagi amaliy ishlari natijasida, mamlakatimizning ushbu sohadagi salohiyati oshib bormoqda.

To‘qimachilik mahsulotlarining eng katta ulushi Xitoy Xalq Respublikasi (1 645,7 ming AQSh dollari – 59,8 %), Rossiya Federatsiyasi (824,8 ming AQSh dollari – 30,0 %) va Turkiya (202,4 ming AQSh dollari – 7,4 %) davlatlari hissasiga to‘g‘ri keldi.

**DAVLATLAR KESIMIDA TO‘QIMACHILIK MAHSULOTLARI EKSPORTI DINAMIKASI (yanvar, ming AQSh dollari)**

| Davlatlar | 2020- yil | 2021- yil |
|---|---|---|
| Xitoy Xalq Respublikasi | 1 111,1 | 1 645,7 |
| Rossiya Federatsiyasi | 1 160,5 | 824,8 |
| Turkiya | 758,8 | 202,4 |
| Pokiston | 273,8 | - |
| Portugaliya | - | 42,3 |
| Hindiston | - | 36,6 |
| Polsha | 28,4 | - |

# QORAQALPOG‘ISTON RESPUBLIKASINING IMPORTI (2021- yil yanvar)

2021- yil yanvar oyida import hajmi 19,8 mln. AQSh dollarini tashkil etdi va 2020- yilning mos davriga nisbatan 49,6 % ga os‘di.

Import tarkibida eng katta ulush, mashinalar va transport asbob-uskunalari (53,2 %), kimyoviy vositalar va boshqa toifalarga kiritilmagan shunga o‘xshash mahsulotlar (11,8 %) va oziq-ovqat mahsulotlari va tirik hayvonlar (11,1 %) ga to‘g‘ri keldi.

**XSST BO‘LIMI BO‘YICHA IMPORT TARKIBI (2021- yil yanvar, ulushi, % da)**




Tovar va xizmatlar importi dinamikasi tahliliga ko‘ra, 2021- yilning yanvarida import qilingan tovarlar hajmi, o‘tgan yilning mos davriga nisbatan 7,3 mln. AQSh dollariga ko‘paydi va 19,4 mln. AQSh dollarini tashkil etdi. Xizmatlar importi esa 0,4 mln. AQSh dollariga yetdi.

**MDH VA BOSHQA XORIJIY DAVLATLARDAN IMPORT TARKIBI (2021- yil yanvar)**

| XSST tarkibi | Ming AQSh dollari | | | Umumiy hajmga nisbatan, % da | | |
|---|---|---|---|---|---|---|
| | Jami | MDH davlatlar | Boshqa davlatlar | Jami | MDH davlatlar | Boshqa davlatlar |
| **Jami import** | **19 799,8** | **4 323,2** | **15 476,6** | **100** | **100** | **100** |
| shu jumladan: | | | | | | |
| Oziq-ovqat mahsulotlari va tirik hayvonlar | 2 199,4 | 1 076,1 | 1 123,3 | 11,1 | 24,8 | 7,3 |
| Ichimliklar va tamaki | - | - | - | - | - | - |
| Nooziq-ovqat xomashyo, yoqilg‘idan tashqari | 1 005,5 | 1 005,5 | - | 5,1 | 23,3 | - |
| Mineral yoqilg‘i, yog‘lash moylari va shunga o‘xshash materiallar | 868,8 | 352,7 | 516,1 | 4,4 | 8,2 | 3,3 |
| Hayvonlar va o‘simliklar moylari (yog‘lari), yog‘lar va mumlar | 742,5 | 742,5 | - | 3,7 | 17,2 | - |
| Kimyoviy vositalar va boshqa toifalarga kiritilmagan shunga o‘xshash mahsulotlar | 2 331,8 | 142,7 | 2 189,1 | 11,8 | 3,3 | 14,1 |
| Asosan material turiga qarab klassifikatsiyalan-gan sanoat tovarlari | 1 325,8 | 947,4 | 378,4 | 6,7 | 21,9 | 2,4 |
| Mashinalar va transport asbob-uskunalari | 10 539,8 | 44,8 | 10 495,0 | 53,2 | 1,0 | 67,9 |
| Turli xil tayyor buyumlar | 413,2 | 11,5 | 401,7 | 2,1 | 0,3 | 2,6 |
| Xizmatlar | 373,0 | - | 373,0 | 1,9 | - | 2,4 |

Importning eng katta ulushi, jumladan, oziq-ovqat mahsulotlari va tirik hayvonlar (24,8 %), nooziq-ovqat xomashyo, yoqilg‘idan tashqari (23,3 %) hamda asosan material turiga qarab klassifikatsiyalangan sanoat tovarlari (21,9 %) MDH mamlakatlariga to‘g‘ri keladi, boshqa xorijiy mamlakatlarga esa eng katta ulush mashinalar va transport asbob-uskunalari (67,9 %) va kimyoviy vositalar va boshqa toifalarga kiritilmagan shunga o‘xshash mahsulotlar (14,1 %) hissasiga to‘g‘ri keladi.

**MDH VA BOSHQA XORIJIY DAVLATLARDAN IMPORTNING O‘ZGARISH SUR’ATLARI (2021- yil yanvar)**

| XSST tarkibi | 2020- yil yanvariga nisbatan, % da | | |
|---|---|---|---|
| | Jami | MDH davlatlari | Boshqa davlatlar |
| **Jami** | **149,6** | **83,4** | **192,1** |
| shu jumladan: | | | |
| Oziq-ovqat mahsulotlari va tirik hayvonlar | 92,1 | 47,4 | 9,4 b. |
| Ichimliklar va tamaki | - | - | - |
| Nooziq-ovqat xomashyo, yoqilg‘idan tashqari | 69,4 | 69,4 | - |
| Mineral yoqilg‘i, yog‘lash moylari va shunga o‘xshash materiallar | 11,3 b. | - | 6,7 b. |
| Hayvon va o‘simliklar moylari (yog‘lari), yog‘lar va mumlar | 30,8 b. | 30,8 b. | - |
| Kimyoviy vositalar va boshqa toifalarga kiritilmagan shunga o‘xshash mahsulotlar | 2,5 b. | 111,1 | 2,8 b. |
| Asosan material turiga qarab klassifikatsiyalangan sanoat tovarlari | 7,1 b. | 12,2 b. | 3,4 b. |
| Mashinalar va transport asbob-uskunalari | 170,7 | 3,7 | 2,1 b. |
| Turli xil tayyor buyumlar | 44,7 | 84,1 | 44,1 |
| Xizmatlar | 34,0 | - | 34,7 |

Joriy davrda import qilingan tovarlar va xizmatlar tarkibi tahlili shuni ko‘rsatdiki, 2020- yilning mos davriga nisbatan kimyoviy vositalar va boshqa toifalarga kiritilmagan shunga o‘xshash mahsulotlar importining ulushi 6,9 % dan 11,8 % gacha o‘sdi, oziq-ovqat mahsulotlari va tirik hayvonlar 18,0 % dan 11,1 % ga, turli xil tayyor buyumlar importining ulushi esa 7,0 % dan 2,1 % ga kamaydi.

## IMPORT TARKIBI DINAMIKASI (2021- yil yanvar, ulushi, % da)

| XSST tarkibi | 2019- yil | 2020- yil | 2021- yil |
|---|---|---|---|
| **Jami** | **100** | **100** | **100** |
| shu jumladan: | | | |
| Oziq-ovqat mahsulotlari va tirik hayvonlar | 5,4 | 18,0 | 11,1 |
| Ichimliklar va tamaki | - | - | - |
| Nooziq-ovqat xomashyo, yoqilg'idan tashqari | 5,1 | 11,0 | 5,1 |
| Mineral yoqilg'i, yog'lash moylari va shunga o'xshash materiallar | 0,1 | 0,6 | 4,4 |
| Hayvon va o'simliklar moylari (yog'lari), yog'lar va mumlar | 0,6 | 0,2 | 3,7 |
| Kimyoviy vositalar va boshqa toifalarga kiritilmagan shunga o'xshash mahsulotlar | 2,3 | 6,9 | 11,8 |
| Asosan material turiga qarab klassifikatsiyalangan sanoat tovarlari | 2,7 | 1,4 | 6,7 |
| Mashinalar va transport asbob-uskunalari | 67,2 | 46,6 | 53,2 |
| Turli xil tayyor buyumlar | 11,0 | 7,0 | 2,1 |
| Xizmatlar | 5,6 | 8,3 | 1,9 |

## XSST BO'YICHA IMPORT QILINGAN AYRIM TURDAGI MAHSULOTLAR TARKIBI (2021- yil yanvar)

| Mahsulot nomi | Ming AQSh dollari | O'zgarish sur'atlari, % da |
|---|---|---|
| **Oziq-ovqat mahsulotlari va tirik hayvonlar** | | |
| Donli ekinlar va ulardan tayyorlangan mahsulotlar | 602,2 | 27,9 |
| Tirik hayvonlar | 1 213,7 | 18,5 b. |
| Hayvonlar uchun ozuqalar (maydalanmagan donlardan tashqari) | - | - |
| Kofe, choy, kakao, ziravorlar va ulardan tayyorlangan mahsulotlar | 2,4 | - |
| Sabzavotlar va mevalar | 58,7 | - |
| Go'sht va go'sht mahsulotlari | 32,7 | - |
| Sut mahsulotlari va qush tuxumlari | 81,6 | - |
| Baliq (dengiz sutemizuvchilari bo'lmagan), qisqichbaqasimonlar, mollyuskalar va suvda suzuvchi umurtqasizlar va ulardan tayyorlangan yarim tayyor mahsulotlar | - | - |
| Shakar, shakardan tayyorlangan mahsulotlar va asal | - | - |
| Har xil oziq-ovqat mahsulotlari va preparatlar | 208,1 | 140,9 |
| **Ichimliklar va tamaki** | | |
| Ichimliklar | - | - |
| **Nooziq-ovqat xomashyo, yoqilg'idan tashqari** | | |
| Probka va yog'och-taxtalar | 1 002,9 | 69,2 |
| To'qimachilik tolalari va ularning chiqindilari | - | - |
| Tabiiy kauchuk (sun'iy va regeneratsiya qilingan rezina ham) | - | - |

XSST BO‘YICHA IMPORT QILINGAN AYRIM TURDAGI MAHSULOTLAR TARKIBI (2021- yil yanvar)

| | | |
|---|---|---|
| Hayvonlar va o‘simliklardan kelib chiqqan xomashyo materiallari | 2,6 | - |
| O‘g‘itlar uchun xomashyo va mineral xomashyo | - | - |
| Metall rudalari va metall parchalari | - | - |
| Qog‘oz massasi va makulatura | - | - |
| **Mineral yoqilg‘i, yog‘lash moylari va shunga o‘xshash materiallar** | | |
| Ko‘mir, koks va briketlar | 99,7 | - |
| Neft va neft mahsulotlari va shunga o‘xshash materiallar | 755,4 | 9,9 b. |
| Tabiiy yoki sun’iy gaz | 13,7 | - |
| **Hayvonlar va o‘simliklar moylari (yog‘lari), yog‘lar va mumlar** | | |
| O‘simlik moylari va yog‘lari | 742,5 | 30,8 b. |
| **Kimyoviy vositalar va boshqa toifalarga kiritilmagan shunga o‘xshash mahsulotlar** | | |
| Birlamchi shakldagi plastmassalar | 141,4 | 2,2 b. |
| Bo‘yaydigan va terini oshlovchi moddalar va bo‘yoqlar | 3,9 | - |
| Kimyoviy materiallar va mahsulotlar | 1 312,8 | 2,6 b. |
| Organik kimyo moddalari | 598,3 | 3,5 b. |
| Birlamchi shaklda bo’lmagan plastmassalar | 260,3 | 71,5 b. |
| Noorganik kimyo moddalari | 15,2 | 9,7 |
| Tibbiyot va farmatsevtika mahsulotlari | - | - |
| Efir moylari, rezinoidlar va attorlik moddalari; xojatxona preparatlari, polirovkalash va yuvish vositalari | - | - |
| O‘g‘itlar | - | - |
| **Asosan material turiga qarab klassifikatsiyalangan sanoat tovarlari** | | |
| Cho‘yan va po‘lat | 116,5 | 2,1 b. |
| Rezina buyumlari | 8,4 | 31,2 |
| Metallardan tayyorlangan buyumlar | 282,9 | 7,2 b. |
| To‘qimachilik yigirilgan ipi, matolar, tayyor buyumlar va shunga o‘xshash mahsulotlar | 15,9 | - |
| Ruda bo‘lmagan qazilmalardan tayyorlangan mahsulotlar | 151,0 | 9,9 b. |
| Teri, teridan tayyorlangan buyumlar, mo‘yna | - | - |
| Probka va daraxtdan tayyorlangan buyumlar (mebeldan tashqari) | 737,7 | 21,2 b. |
| Qog‘oz, karton va qog‘oz massasi, qog‘oz yoki kartondan tayyorlangan buyumlar | 13,5 | 92,9 |
| Rangli metallar | - | - |
| **Mashinalar va transport asbob-uskunalari** | | |
| Energiya generatori mashinalari va asbob-uskunalar | 5,0 | 95,6 |
| Aniq sohalar uchun maxsus mo‘ljallangan mashinalar | 6 757,7 | 2,5 b. |
| Sanoat uchun maxsus bo‘lmagan mashinalar va asbob-uskunalar va ularning detallari | 440,7 | 23,1 |
| Elektr mashinalari, apparatlar, asboblar va ularning elektr qismlari | 488,5 | 79,2 |
| Elektr aloqasi, ovozni yozish va eshittirish apparaturalari va uskunalari | 2 160,1 | 3,8 b. |

XSST BO‘YICHA IMPORT QILINGAN AYRIM TURDAGI MAHSULOTLAR TARKIBI (2021- yil yanvar)

| | | |
|---|---|---|
| Metallarni qayta ishlash mashinalari | 0,0 | 0,0 |
| Kantselyariya mashinalari va ma’lumotarni avtomatik ravishda qayta ishlash uchun asbob-uskunalar | 0,9 | 19,5 |
| Avtomobillar | 686,9 | 4,1 b. |
| Boshqa transport uskunalari | - | - |
| **Turli xil tayyor buyumlar** | | |
| Har xil tayyor buyumlar | 18,9 | 27,0 |
| Mebel va uning qismlari, yotarjoy buyumlari, matraslar, matraslar uchun tirgaklar, yostiqlar va shunga o‘xshash tikilgan mebel | - | - |
| Maxsus, ilmiy va nazorat asboblari va apparatlari | 323,4 | 13,2 b. |
| Blokli binolar, suv o‘tkazish, kanalizatsiya isitish va yoritish uskunalari uchun armatura va mahkamlash moslamalari | 70,2 | 8,6 |
| Poyabzal | 0,7 | - |
| Yo‘l anjomlari, sumkalar va shunga o‘xshash konteynerlar | - | - |
| Kiyim-kechaklar va kiyim-kechak anjomlari | - | - |
| Fotografik apparatura, uskuna, ishlatiladigan materiallar va optik buyumlar, boshqa joyda tasniflanmagan; soatlar | - | - |
| **Xizmatlar** | | |
| Boshqa ish yuzasidagi xizmatlar | 111,1 | 11,8 |
| Transport xizmatlari | 6,7 | 30,4 |
| Texnik xizmat ko‘rsatish va ta’mirlash xizmatlari | 70,6 | 2,0 b. |
| Moliyaviy xizmatlar | 184,6 | 184,6 |

Turli xil tayyor buyumlar importi hajmlarining kamayishiga blokli binolar, suv o‘tkazish, kanalizatsiya isitish va yoritish uskunalari uchun armatura va mahkamlash moslamalari (91,4 % ga pasaygan) va har xil tayyor buyumlar (73,0 % ga pasaygan) importining kamayishi ta’sir qilgan.

Nooziq-ovqat xomashyo, yoqilg‘idan tashqari importi kamayishiga esa, probka va yog‘och-taxtalar (30,8 % ga pasaygan) importining kamayganligi bevosita ta’sir etgan.

**MDH VA BOSHQA XORIJIY DAVLATLARDAN TOVAR VA XIZMATLAR IMPORTI HAJMLARI DINAMIKASI (yanvar, mln. AQSh dollari, ulushi, % da)**







Hisobot davri yakunlariga ko‘ra, import bo‘yicha hamkor davlatlar orasida Chexiya Respublikasi umumiy import hajmida 26,9 % ulushi bilan Rossiya Federatsiyasini (13,4 %) ortda qoldirgan holda birinchi o‘rinni egalladi.

## TOVAR VA XIZMATLAR IMPORTIDAGI YIGIRMATA YIRIK HAMKOR DAVLATLAR (yanvar)

| Davlatlar | Ming AQSH dollari | | O‘zgarish sur’atlari, % da | | O‘rni | |
|---|---|---|---|---|---|---|
| | 2020- yil | 2021- yil | 2020- yil | 2021- yil | 2020- yil | 2021- yil |
| Chexiya Respublikasi | - | 5 331,8 | - | - | - | 1 |
| Rossiya Federatsiyasi | 2 812,2 | 2 646,0 | 115,4 | 94,1 | 2 | 2 |
| Vyetnam | 575,0 | 2 219,2 | 149,3 | 3,9 b. | 5 | 3 |
| Xitoy Xalq Respublikasi | 3 982,4 | 1 906,5 | 35,5 | 47,9 | 1 | 4 |
| Koreya Respublikasi | 2 009,9 | 1 611,9 | 78,8 | 80,2 | 4 | 5 |
| Germaniya | 9,4 | 1 424,2 | 1,1 | 151,8 b. | 21 | 6 |
| Turkiya | 40,2 | 1 076,8 | 2,0 | 26,8 b. | 15 | 7 |
| Qozog'iston | 2 303,5 | 1 051,5 | 180,9 | 45,6 | 3 | 8 |
| BAA | 11,0 | 500,5 | 2,4 | 45,7 b. | 20 | 9 |
| Qirg‘iz Respublikasi | 7,0 | 396,2 | 11,0 | 56,6 b. | 23 | 10 |
| Belgiya | 57,6 | 224,9 | - | 3,9 b. | 11 | 11 |
| Polsha | 102,9 | 224,8 | 107,3 | 2,2 b. | 10 | 12 |
| Avstriya | - | 175,8 | - | - | - | 13 |
| Turkmaniston | 14,4 | 166,3 | 6,1 | 11,6 b. | 19 | 14 |
| Buyuk Britaniya | 168,6 | 164,4 | 2,4 | 97,5 | 9 | 15 |
| Pokiston | - | 161,3 | - | - | - | 16 |
| Litva | 34,0 | 129,6 | 2,2 | 3,8 b. | 16 | 17 |
| Niderlandiya | 0,2 | 91,2 | 0,2 | 366,2 b. | 28 | 18 |
| Frantsiya | 8,8 | 89,2 | - | 10,2 b. | 22 | 19 |
| Belarus | 44,7 | 63,2 | - | 141,2 | 14 | 20 |

2020- yil shu davri bilan taqqoslaganda import bo‘yicha eng yuqori uchlikda o‘zgarish kuzatildi. Xitoy o‘z o‘rnini Chexiyaga, Qozog'iston Vyetnamga bo‘shatib berdi. Rossiya o‘z o‘rnini saqlab qoldi.

2021- yil yanvar oyi yakuni bo‘yicha Qoraqalpog‘iston Respublikasi tomonidan 28 ta davlat bilan tovarlar va xizmatlar importi amalga oshirildi.

**QORAQALPOG'ISTON RESPUBLIKASI IMPORTIDA ASOSIY HAMKOR DAVLATLARNING ULUSHI (yanvar, % da)**




Yetti yirik hamkor davlatlar (Chexiya Respublikasi, Rossiya Federatsiyasi, Vyetnam, Xitoy, Koreya Respublikasi, Germaniya va Turkiya) jami importning 81,8 % ini tashkil qiladi, bu 16,2 mln. AQSh dollarini tashkil etadi.

Respublikadagi sarmoyaviy muhit yaxshilangani sari va ushbu sohada amalga oshirilgan islohotlar natijasida mashina va uskunalar, shuningdek, ularning qismlari importining o'sishi tabiiydir. Shunday qilib, Xitoy, Rossiya Federatsiyasi, Koreya Respublikasi va Qozog'iston tomonidan kiritilgan katta hajmdagi investitsiyalar natijasida, mahsulotlar importi hajmida ushbu mamlakatlarning yuqori ulushi saqlanib qolmoqda.

**XIZMATLAR IMPORTI TARKIBI (2021- yil yanvar, ulushi, % da)**




Xizmatlar importi hajmi 0,4 mln. AQSh dollarini yoki jami import hajmining 1,9 % ini tashkil etib, 2020- yilning mos davriga nisbatan 66,0 % ga kamayganligi kuzatildi. Xizmatlar importi tarkibining asosiy ulushi moliyaviy (49,5 %) va boshqa ish yuzasidagi (29,8 %) xizmatlardan iborat bo‘ldi. Shu bilan birga texnik xizmat ko‘rsatish va ta’mirlash xizmatlari (18,9 %) va transport xizmatlari (1,8 %) tashkil etgan.

**MASHINALAR VA TRANSPORT ASBOB-USKUNALARI IMPORTI**

2021- yil yanvar oyi yakuni bilan 10,5 mln. AQSh dollari miqdorida mashinalar va transport asbob-uskunalari importi amalga oshirilgan bo‘lib, umumiy import hajmining 53,2 % ini tashkil qildi.

Import qilingan usbu sohada asosiy ulushni aniq sohalar uchun maxsus mo‘ljallangan mashinalar (64,1 %), elektr aloqasi, ovozni yozish va eshittirish apparaturalari va uskunalari (20,5 %), avtomobillar (6,5 %) hamda elektr mashinalari, apparatlar, asboblar va ularning elektr qismlari (4,6 %) egallagan.

Joriy yilning yanvar oyi yakuniga ko‘ra, mashina va transport asbob-uskunalari importi 2020- yil yanvar oyiga nisbatan o‘sish (70,7 %) qayd etildi.

**MASHINALAR VA TRANSPORT ASBOB-USKUNALARI IMPORTI DINAMIKASI (yanvar, ming AQSh dollari)**

| Mashinalar va transport asbob-uskunalari | 2020- yil | 2021- yil |
|---|---|---|
| Aniq sohalar uchun maxsus mo‘ljallangan mashinalar | 2 696,3 | 6 757,7 |
| Elektr aloqasi, ovozni yozish va eshittirish apparaturalari va uskunalari | 571,8 | 2 160,1 |
| Avtomobillar | 168,9 | 686,9 |
| Elektr mashinalari, apparatlar, asboblar va ularning elektr qismlari | 616,7 | 488,5 |
| Sanoat uchun maxsus bo‘lmagan mashinalar va asbob-uskunalar va ularning detallari | 1 910,2 | 440,7 |
| Energiya generatori mashinalari va asbob-uskunalar | 5,2 | 5,0 |
| Kantselyariya mashinalari va ma’lumotarni avtomatik ravishda qayta ishlash uchun asbob-uskunalar | 4,7 | 0,9 |
| Metallarni qayta ishlash mashinalari | 200,6 | 0,0 |
| Boshqa transport uskunalari | - | - |

**Tashqi iqtisodiy faoliyat va savdo statistikasi bo‘limi**
**Tel.: 61 224-92-06**